

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2023- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajm 15 568,2 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,4 %, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 15 036,4 mlrd. so‘mni (103,9 %), o‘rmonchilik xo‘jaliklari 432,5 mlrd. so‘mni (98,3 %), baliqchilik xo‘jaliklarida 99,3 mlrd. so‘mni (100,0 %) tashkil qildi.

Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Toshkent (110,2 %), Bo‘ka (109,7 %), tumanlari va Nurafshon (107,3 %) shahrida kuzatildi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Angren shahar (100,3 %), Oqqo‘rg‘on (100,4 %) va Bekobod (100,5) tumanlarida nisbatan past o‘shish sur‘atlari bilan yakunlandi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan
(ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda hududlarning ulushi**


	2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so‘m *	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Umumiy hajmda hududlarning ulushi, %da
Toshkent viloyati	15 568,2	103,4	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	40,5	107,3	0,3
Olmalik	74,3	101,2	0,5
Angren	211,3	100,3	1,4
Bekobod	143,0	102,1	0,9
Ohangaron	31,6	103,6	0,2
Chirchiq	127,4	101,3	0,8
Yangiyo‘l	10,6	106,8	0,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	960,6	100,4	6,2
Ohangaron	634,9	102,6	4,1
Bekobod	1 554,2	100,5	10,0
Bo‘stonliq	1 182,2	102,6	7,6
Bo‘ka	989,6	109,7	6,3
Quyi Chirchiq	977,4	102,1	6,3
Zangiota	925,1	104,0	5,9
Yuqori Chirchiq	1 056,9	103,6	6,8
Qibray	885,8	101,3	5,7
Parkent	614,2	105,4	3,9
Piskent	906,9	103,6	5,8
O‘rta Chirchiq	1 371,0	102,1	8,8
Chinoz	966,3	105,8	6,2
Yangiyo‘l	969,8	102,8	6,2
Toshkent	757,8	110,2	4,9

* - Toshkent shahar

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi


	<i>2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i>	<i>Umumiy hajmda kichik biznes ulushi, %da</i>
Toshkent viloyati	14 446,5	101,8	92,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	40,5	107,4	100,0
Olmaliq	74,2	102,7	100,0
Angren	190,0	101,2	89,9
Bekobod	142,9	102,1	100,0
Ohangaron	31,4	100,5	99,2
Chirchiq	127,4	101,3	100,0
Yangiyo‘l	10,6	105,6	99,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	929,7	100,7	96,8
Ohangaron	586,3	101,7	92,3
Bekobod	1 526,2	100,7	98,2
Bo‘stonliq	1 168,5	105,9	98,8
Bo‘ka	936,5	109,3	94,6
Quyichirchiq	844,8	103,4	86,4
Zangiota	870,5	103,0	94,1
Yuqorichirchiq	974,8	99,2	92,2
Qibray	809,6	99,7	91,4
Parkent	610,7	105,9	99,4
Piskent	713,1	93,8	78,6
O‘rtachirchiq	1 256,9	97,3	91,7
Chinoz	935,9	105,1	96,8
Yangiyo‘l	840,4	99,8	86,7
Toshkent	705,4	104,5	93,1

**2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajm,
mlrd. so'mda**




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning katta hajmi Bekobod tumanida – 1 554,2 mlrd. so'mni tashkil etib, hududlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichni tashkil qildi. O'rta Chirchiq 1 371,0 mlrd. va Bo'stonliq tumanlarida mos ravishda 1 182,2 mlrd. so'm kuzatildi. Eng kam hajmi Yangiyo'l (10,6 mlrd. so'm) va Ohangaron (31,6 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar (xizmatlar)
umumiy hajmida hududlarning ulushi**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmida Bekobod tumanining ulushi 10,1 %ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. O‘rta Chirchiq (8,1 %), Bo‘stonliq (7,7 %) va Yuqori chirchiq (6,9 %) tumanlari keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiyo‘l (0,1 %), Ohangaron (0,2 %) va Nurafshon (0,3 %) shaharlarida qayd etildi.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining
xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2023- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘sishi 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 104,5 %ni hamda chorvachilik mahsulotlari 103,5 %ni tashkil qildi.

Dehqonchilik. 2023- yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 347,3 ming tonna sabzavot (2022- yilning shu davriga nisbatan 100,3 %) yig‘ib olindi.

Bundan tashqari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 142,2 ming tonna kartoshka qazib olindi, 41,7 ming tonna meva va rezavorlar yetishtirildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida
asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish




Yetishtirilgan sabzavot ekinlarining yuqori ko'rsatkichlari Bekobod (71,9 ming tonna), O'rta Chirchiq (41,1 ming tonna) va Chinoz (36,6 ming tonna) tumanlarida tashkil etgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Bekobod (0,001 ming tonna), va Yangiyo'l (0,0015 ming tonna) shaharlariga to'g'ri keldi. Kartoshka qazib olish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlari Quyichirchiq (21,6 ming tonna), Bo'stonliq (20,2 ming tonna) va Piskent (13,8 ming tonna) tumanlarida tashkil etilgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Olmaliq (0,001 ming tonna) va Yangiyo'l (0,002 ming tonna) shaharlariga to'g'ri keldi.

Chorvachilik. 2023- yilning 1- iyul holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,3 %ga (jami 940 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,5 %ga (406 ming bosh), qo'y va echkilar 100,5 %ga (1 090 ming bosh), otlar 101,3 %ga (55 ming bosh), parrandalar 109,2 %ga (15 mln. boshga) ko'paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 85,4 %ni, sut ishlab chiqarishda 97,4 %ni, tuxum ishlab chiqarishda 64,0 %ni tashkil etdi.

**2023- yil 1- iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**



Eng ko‘p qo‘y va echkilar Ohangaron (260,6 ming bosh), Bo‘stonliq (163,4 ming bosh) va Parkent (110,8 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l (1,0 ming bosh), Ohangaron (2,4 ming bosh) va Nurafshon (4,2 ming bosh) shaharlariga to‘g‘ri keldi.


Parrandalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota (3 086,8 ming bosh), Bo‘stonliq (2 116,7 ming bosh) va Qibray (1 869,7 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (1,0 ming bosh), Ohangaron (2,4 ming bosh) va Nurafshon (4,2 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O‘shish sur‘ati, %da
Yirik shoxli qoramol	939,6	102,3
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	82,3	100,1
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	816,0	102,1
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	41,3	110,5
Ulardan sigirlar	406,5	101,5
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	24,8	100,8
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	369,2	100,8
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,5	132,8
Qo‘y va echkilar	1 090,2	100,5
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	326,0	95,0
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	688,4	101,1
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	75,8	126,3
Otlar	55,4	101,3
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	10,1	96,3
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	42,7	101,2

	Ming bosh	O'sish sur'ati, %da
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,6	127,5
Parrandalar	15 588,5	109,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	133,6	89,0
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	8 729,5	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6 725,4	123,4

Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo'jaliklar toifalarining ulushi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 86,8 %ni, fermer xo‘jaliklarida esa 8,8 %ni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 90,8 %ni va 6,1 %ni, qo‘y va echkilar 63,1 %ni va 29,9 %ni, otlar 77,1 %ni va 18,1 %ni, parrandalar 56,0 %ni va 0,5 %ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 153,3 ming tonna go‘sht (2022- yilning mos davriga nisbatan 2,6 %ga ko‘p), 491,0 ming tonna sut (3,6 %ga ko‘p), 580,5 mln. dona tuxum (12,2 %ga ko‘p) ishlab chiqarilgan.

**Yirik shoxli qoramollar
(ming bosh)**



**shu jumladan: sigirlar
(ming bosh)**



Yirik shoxli qoramollar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Bo'stonliq (85,1 ming bosh), Bekobod (77,3 ming bosh) va Bo'ka (74,7 ming bosh) tumanlarida, aksincha past ko'rsatkich Yangiyo'l (2,3 ming bosh), Olmaliq (2,9 ming bosh) va Chirchiq (3,4 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.


Shu jumladan, sigirlar eng yuqori ko'rsatkich Bo'ka (42,0 ming bosh), Yangiyo'l (36,1 ming bosh) va Chinoz (33,7 ming bosh) tumanlariga, aksincha past ko'rsatkich Ohangaron (0,4 ming bosh), Yangiyo'l (0,7 ming bosh) va Olmaliq (1,9 ming bosh) shaharlariga to'g'ri keldi.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming t.	153,3	102,6
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	3,2	100,4
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	127,7	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	22,4	118,4
Sut, ming t.	491,0	103,6
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	25,4	120,2
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	453,1	102,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,5	114,5
Tuxum, mln. dona	580,5	112,2
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	0,5	26,5
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	370,9	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	209,1	142,5


Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan % hisobida)

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yil yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xo'jaliklar kesmida tahlil qilinganda, go'sht ishlab chiqarish 2,1 %, tuxum ishlab chiqarish 36,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, sut ishlab chiqarish 5,1 % ulushi fermer xo'jaliklari hisobiga to'g'ri keladi.



**2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**



2023- yil yanvar-iyun oylarida go'sht ishlab chiqarish hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p ishlab chiqargan hududlar O'rta Chirchiq (14,6 ming tonna), Bo'stonliq (12,8 ming tonna) va Yangiyo'l (11,3 ming tonna) tumanlari bo'lsa, Yangiyo'l (0,1 ming tonna), Ohangaron (0,2 ming tonna) va Nurafshon (0,5 ming tonna) shaharlarida esa kam ishlab chiqarilgan.

Bo'stonliq (61,3 ming tonna), Bo'ka (39,3 ming tonna) va Bekobod (38,2 ming tonna) tumanlari sut ishlab chiqarish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlardan o'rin olgan bo'lsa, aksincha Bekobod (0,9 ming tonna), Yangiyo'l (1,1 ming tonna) va Nurafshon (1,2 ming tonna) shaharlari sut ishlab chiqarish bo'yicha past ko'rsatkichlardan o'rin egalladi.

Tuxum (mln. dona)



Viloyatda tuxum ishlab chiqarish bo'yicha 2023-yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori ko'rsatkich Zangiota (89,8 mln. dona), Yuqori Chirchiq (85,9 mln.dona) va O'rta Chirchiq (58,8 mln. dona) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, past ko'rsatkich Yangiyo'l (0,5 mln. dona), Nurafshon (0,1 mln. dona) va Olmalik (0,5 mln. dona) shaharlarida kuzatildi.

Fermer xo'jaliklari. 2023- yil yanvar-iyun oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 561,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 10,6 %ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan
ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari

	yanvar-iyun				2022- yanvar- iyuniga nisbatan % hisobida
	2022- yil		2023- yil		
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %	
Kartoshka	8,3	6,0	9,7	6,8	117,2
Sabzavot	21,7	6,3	22,4	6,4	103,0
Go‘sh, tirik vaznda	3,2	2,1	3,2	2,1	100,4
Sut	21,1	4,5	25,4	5,2	120,2
Tuxum, mln. dona	1,9	0,4	0,5	0,1	26,5

2023- yilning 1- iyul holatiga fermer xo‘jaliklarida 82,3 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 24,8 ming bosh sigir, 326,0 ming bosh qo‘y va echkilar, 10 035 bosh ot, 133,6 ming bosh parrandalar mavjud.